



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**“GLOBALLASHUV
DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR
MUNOSABATI” MAVZUSIDA**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

Navoiy-2023



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOYIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“GLOBALLASHUV DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR
MUNOSABATI” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
M A T E R I A L L A R I**

BIRINCHI KITOB

Navoiy-2023

HASHAROT LUG‘AVIY-MA‘NOVIY GURUHI ASOSIDA SHAKLLANGAN O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDA ANTONIMLIK

*Samandarova Gulnoz Yarashovna,
BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida dotsenti v.b.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Hasharot” lug‘aviy ma‘noviy guruhi asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalarida antonimlik hodisalarining ro‘y berishi haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Maqolada antonimlar o‘ziga xos xususiyati bilan omonim va sinonimlardan farq qilishi masalalari haqidagi fikrlar bayon qilingan. “Hasharot” lug‘aviy ma‘noviy guruhi asosida shakllangan paremalarda ham zid ma‘nolilik xususiyatlari turli sistemada yaqqol ko‘rinishi misollar orqali keng ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: hasharot, parema, antonim, maqol, matal, paradigma, ma‘nodoshlik, graduonimik munosabat, hodisa.

Аннотация. В данной статье дана подробная информация о возникновении явлений антонимии в узбекских народных паремах, сформировавшихся на основе словарной духовной группы “насекомое”. В статье изложены соображения по вопросу о том, чем антонимы отличаются от омонимов и синонимов по своему характеру. В паремах, сформировавшихся на основе словарной духовной группы “насекомое”, также широко раскрываются на примерах противоречивые свойства значимости, очевидные в различных системах.

Ключевые слова: насекомое, парема, антоним, пословица, поговорка, парадигма, значимость, градуонимическое отношение, явление.

Annotation. This article provides detailed information about the occurrence of the phenomena of antonymy in Uzbek folk paremes, formed on the basis of the dictionary spiritual group “insect”. The article presents considerations on the question of how antonyms differ from homonyms and synonyms by their nature. In the paremes formed on the basis of the dictionary spiritual group “insect”, the contradictory properties of significance, evident in various systems, are also widely revealed by examples.

Keywords: insect, ferry, antonym, proverb, saying, paradigm, significance, graduonymic relation, phenomenon.

Hozirgi kunda tillarning maqol va paremilogik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganishga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. “Maqollar faqat til materiallaridagina yaratilgan emas, balki tilning beqiyos qudrati tufayli vujudga kelgandir. Bu holat nutqda keng qo‘llanib kelinayotgan maqollarni yanada chuqur ilmiy tadqiq etishni talab qiladi”.

“Hasharot” lug‘aviy ma‘noviy guruhi asosida shakllangan paremalar lisonda turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjuddir. Xususan, ma‘nodoshlik, zid ma‘nolilik, graduonimik, butun-bo‘lak munosabati mazkur guruhdahi paremalarda ham namoyon bo‘ladi. Quyida ularning har biriga to‘xtalib o‘tamiz.

Barchamizga ma‘lumki, bir-biriga ma‘no va mazmun jihatdan o‘zaro zid munosabatda turadigan hodisalar antonim deyiladi. So‘zlarning bunday munosabatda bo‘lish hodisasi antonimiya deb yuritiladi. Kun-tun, qisqa-uzun, past-baland, yaxshi-yomon, ota-ona, yer-osmon so‘zlari antonimlar jumlasiga kiradi.

Antonimik munosabatda bo‘lgan ikki so‘z antonimik juft deb ataladi.

Antonimik juftlikni hosil qilgan soʻzlar, odatda, bir soʻz turkumiga mansub boʻladi: oq (sifat) - qora (sifat), gʻarb (ot) - sharq (ot), kam (ravish) - koʻp (ravish), oʻtirmoq (feʻl) – turmoq(feʻl) kabi.

Antonimlar oʻziga xos xususiyati bilan omonim va sinonimlardan farqlanadi.

Shakliy (fonetik tuzilish) jihatidan har xillik; maʼnodagi oʻzaro zidlik antonimlarning muhim belgisi hisoblanadi. Keyingi belgi, yaʼni zidlik tushunchasi antonimlarni belgilashda asosiy kriteriya boʻlib hisoblanadi.

Tilda mavjud boʻlgan soʻzlaning barchasi oʻz zid maʼnoli juftiga ega boʻlavermasligi mumkin. Ammo xalq donishmandligi mevasi sanaladigan maqol, matal, iboralarda shunday oʻrinlar mavjudki, ularda aslida zid emas hodisalar ham nutqiy vaziyatva tilimiz jozibas va xalqimizning buyuk tafakkuri va maʼnoviy noziklari oʻlaroq zidlik hosil qila oladi.

Qarama qarshilik maʼnosi koʻproq narsa-hodisalarning belgisida kuzatiladi. Qalin-yupqa, erta-kech, yaxshi-yomon, qattiq-yumshoq, oq-qora, shirin-achchiq, uzoq-yaqin kabilar belgi maʼnosini ifodalovchi antonimlar hisoblanadi.

“Hasharot” lugʻaviy maʼnoviy guruhi asosida shakllangan paremalarda ham zid maʼnolilik xususiyatlari turli sistemada yaqqol koʻrinadi. Masalan:

Shu oʻrinda yuqoridagi taʼrifdagi “turli sistemada” degan jumлага izoh berib oʻtish talab qilinadi. Oʻzbek xalq maqollari mazmun-mohiyat jihatdan qanchalik boy boʻlsa, ularning hosil boʻlishi ham shunchalik serjilo va murakkab til hodisalariga boydir. Masalan, birgina antonimlik hodisasini paremalarimizda turli shakl va turli sistemada koʻrishimiz mumkin.

Yaʼni: 1. “Hasharot” lugʻaviy maʼnoviy guruhi asosida shakllangan oʻzbek xalq paremalari ikki nomzod xususiyatlarini yoki harakatlarini zidlash yoʻli bilan hosil qilingan boʻlishi mumkin. Masalan:

Pashsha bolga yopishar,
Kampir cholga.

Bu maqol juda kuchli xalqonalik kasb etib, xalqimizning kundalik hayotida qadimdan chol va kampir orasida sodir boʻladigan kichkina gap talashishlar, chollarning boʻlar-boʻlmas narsalarni bahona qilib kampiriga yopishib, u bilan janjal qilish odati hayotiy chizgilar bilan qalamga olinadi va asosan injiq, bir arzimagan kamchilik koʻrib qolsa, shunga yopishib olib boshqalarga kun bermaydigan xarakterli kishilar tanqid qilinadi.

Qoraqurt ham bolasini oppogʻim der.

Kirpi bolasini yumshogʻim der.

Parema orqali xalqimiz har kimning farzandi oʻziga shirinligini, oʻz farzandining kamchiliklari ona-otaning mehri-muhabbati tufayli ularga koʻrinmasligi nazarda tutiladi. Qora qurt qanchalik qora boʻlmasin bolasini “oppogʻim” deyishi yoki kirpi qanchalik tikanli boʻlmasin otanasi uchun “yumshoq” boʻlishi mana shu mehrning natijasidir.

Bu paremalar yasalishida “kampir va chol” va “qora va oppoq”, “kirpi-yumshoq” zid maʼnoli soʻzlar juftliklari asos boʻlgan.

Ari zahrin chekmagan, bol qadrini bilmas.

Bu maqol asosan “Yomonni koʻrmagan yaxshining qadriga yetmaydi” degan fikrni ilgari suradi, yaʼni “ari zahrini chekish - yomonning yomonliklarini tatib koʻrish”, “bol qadrini bilishi - yaxshining qadriga yetish” semalari orqali zidlanadi va arining zahri va bol antomik juftlik qatorini hosil qilgan.

2. Umuman zidlik xususiyatiga ega bo'lmagan ikki obraz aynan paremaning qandaydir ma'no nozikliklari talabi bilan va aynan shu paremaning o'zidagina zidlik hosil qila olish xususiyatini ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan:

Dushmaning kuya bo'lsa ham, tuya bil.

Kuya badiiy adabiyotda va kundalik nutqiy muloqotlarda o'z ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan: kigizni kuya bosibdi: Pulni kuya yebdi, junga kuya tushibdi va h.k.

“To'piqlaridan qon oqayotgandi. Kishanga qoplangan kigizga kuya tushib, chirib ketgan ekan, suvdan hakkalab o'tganida kigiz tushib ketib, temiri ochilib qolibdi...”

(Nosir Fozilov “ Shum bolaning nabiralari”)

Mazkur paremadagi kuya va tuya obrazlari aslida hech qanday antonimlik xususiyatiga ega emas, ammo faqat shu maqol tarkibida kuya “kichiklik” va tuya “kattalik” semalariga ko'ra zidlik hosil qila olgan. Bunday holatni ko'plab maqollarimizda kuzatishimiz mumkin. Masalan: Dard filni pashshadek qilur.

Bu o'rinda fil “kattalik” va pashsha “kichiklik” semasiga ko'ra antonim juftlik hosil qila olgan.

Bit bo'lsa ham - panoh.

Bu maqolda “panoh” tushunchasi ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'lib, boshpana, himoyaci, himoya qiluvchi kabi tushunchalarni anglatadi. “Kichiklik” semasidagi –bit va “himoyachi” semasidagi—panoh so'zlari faqat shu o'rindagina ma'no nozikliklari, til jozibasi mevasi o'laroq zidlik, antonimlik qatorida birlasha oladi.

Yo poshsho buzar,

Yo pashsha.

Mana bu maqolda ham aslida hech qanday zidlik xususiyatiga ega bo'lmagan ikki so'z “poshsho” va “pashsha” so'zlari maqollar hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyati natijasida pashsha - "kichiklik" va poshsho- “kattalik, boylik, rahbarlik” semalari bilan zidlik hosil qila olgan. Oqibatda ko'zlagan ishingizni o'z qudrati bilan poshsho ham yoki kichkina pashsha ham buzishi mumkinligi, buza olishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Yomondan it yaxshi,

Sirkadan bit yaxshi.

Mazkur paremada insonlar sirka va bitga o'xshatiladi. Sirkadan qutilish bitga nisbatan qiyinligi va sirka bilan bit toifasidagi insonlardan ko'ra ongsiz itning yaxshi ekanligi uqtiriladi. Bu o'rinda yaxshi va yomon tushunchalari o'z-o'zidan zidlik qatorini hosil qilsa, it va bit shu maqolning o'zidagina nutqiy vaziyat talabi bilan zidlik qatorini hosil qiladi.

Mehnatsiz et yemaydi, bit yeydi.

Burganing ko'ziga igna xati bo'lib, chumoli fil bo'lib ko'rinar.

3. “Hasharot” lug'aviy ma'noviy guruhi asosida shakllangan o'zbek xalq paremalarida bir-biri bilan o'zaro zid ma'nolilik qatorlarini hosil qiluvchi paremalarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan: It, itning o'rtog'i bit.

Biz bu paremada “bit” obrazini “it” obraziga yaqin va undan ham kuchliroq salbiy qiyofada ko'ramiz va bu maqol asosan xalq orasidagi kishilarga do'st tanlashda xato qilmaslik, do'st insonga qanchalik ta'sir qilishi mumkinligi haqida, atrofdagilar kishiga unung do'stiga qarab baho berishlari haqida tushuntirishga urinadi. Biz bu paremada “bit”ni salbiy obraz sifatida ko'ramiz.

Ammo quyida keltirilgan maqollarda biz “bit” nomzodini yuqoridagiga nisbatan ijobiy qiyofada ko'ramiz.

Bit ham bo'lsa panoh.

Bu parema “bit”ning “parazitlik” yoki “kuchsizlik” semalari asosida paydo bo‘lgan bo‘lib, jamiyatimizdagi ishyoqmas, beg‘am kishilarni ta’riflash bilan birga, hayotda o‘rni bilan shundaylarning ham borligi kishiga taskin berishi, ular ham, ularning nomlari ham ba’zan kishilarga panoh bo‘lishi mumkinligi e’tirof etiladi. Bu o‘rinda biz “bit” nomzodini ijobiy qiyofasini ko‘ra olamiz. Yoki:

Burga qochar oyoqqa,
Bit qoladi tayoqqa.

Har bir inson bu hayotda o‘z bilganicha, o‘z jismoniy imkoniyatidan kelib chiqqan holda yo‘l tanlaydi, yashaydi. Bu maqolda “burga” obrazi orqali jamiyatimizdagi chaqqon va uquvsiz, sodda kishilar zid ma’noilik qatorlarida birlashadi. Burga va bit faqat shu paremadagina antonimlik kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Т.: Фан, 1978. – 224 с.
2. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси.–Т.: Фан,1981.–104 б.
3. Mavlonov Z. Zoologiya. 7-sinf uchun darslik. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 180 b.
4. Bozorov Z.A International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions” “Imperial College London” 2021-2022. 165-169 б.
5. Bozorov Z.A. Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development. Published in Volume 6 Special Issue , January 2021 of IEJRD E-ISSN: 2349-0721 , Peer Reviewed & Referred Journal.
6. Bozorov Z.A. The role of motivation, needs and interests in the formation of civil culture of future medical workers. ACADEMICIA an international multidisciplinary research journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 3, March 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00835.1
7. Bozorov Z.A. The system of formation of civic culture among students in higher educational institutions. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 455-458. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-81-81> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 3304. (2020).
8. Bozorov Zayniddin & Samandarova Gulnoz. (2020). Ideological movement of legends and traditions in the novel “Shaytanat” by Tohir Malik. Theoretical & Applied Science. 84. 1014-1016. 10.15863/TAS.2020.04.84.187.
9. Bozorova G. Concerning some pleonastic and tautological constructions //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
10. Bozorova G. Tautology and pleonasm: synchronic and diachronic views //Конференции. – 2021.
11. Bozorova G. Z. Ortiqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida organilishi // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 945-951.
12. Bozorova Gulmira Zayniddinovna. Distinctive features of pleonasm in political speech // International scientific-online conference: Intellectual education technological solutions and innovative digital tools. Vol. 2 No. 14 (2023); - P. 168-174.
13. Kadyrovna A. M., Zayniddinovna B. G. Description of Events Which is Near to Pleonasm //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 281-285.

14. Samandarova G.Y. Socially conditioned meanings of paremas formed on the basis of the lexical spiritual group "insects". *Gospodarka i innowacje*. Volume: 22 | 2022. –P. 443-446.
15. Samandarova, G. Y. (2021). Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. *Current research journal of philological sciences*, 2(05), 39–42. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-05-11>
16. Бозорова Г. З. Идейная направленность сказаний и преданий романа "Шайтанат" Тахира Малика // *Молодой ученый*. – 2014. – №. 9. – С. 532-534.
17. Бозорова Г. Илмий нутқда учрайдиган айрим плеонастик бирликлар таҳлили // *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 327-331.
18. Бозорова Г.З. ОАВда учрайдиган плеонастик бирликларнинг лингвопрагматик хусусиятлари // *Interpretation and researches*. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oavda-uchraydigan-pleonastik-birliklarning-lingvopragmatik-hususiylatlari> (дата обращения: 10.04.2023).
19. Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Т.: Фан, 2007. –66 б.
20. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар маҳзани (Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 212

TIBBIY ATAMASHUNOSLIKDA ABBREVIATURALAR

*Bozorova Gulmira Zayniddinovna,
BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy terminologiya, uning tilshunoslik bilan integratsion aloqalari yoritilgan. Tibbiyotdagi atamalar nutqda voqelanganda hosil bo‘ladigan pleonastik birliklar tahlilga tortilgan. Shuningdek, tibbiyotga oid terminlarning shakllanish xususiyatlari tasniflangan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, terminologiya, tibbiyot, tibbiy atamalar, tibbiy abbreviatura, pleonastik birikma, pleonazm.

Аннотация. В данной статье рассматривается медицинская терминология и ее интеграционные отношения с лингвистикой. Анализируются плеонастические единицы, образующиеся при появлении в речи медицинских терминов. Также классифицируются особенности образования медицинских терминов.

Ключевые слова: лингвистика, терминология, медицина, медицинские термины, медицинская аббревиатура, плеонастическое сочетание, плеоназм.

Abstract. This article covers medical terminology and its integration relations with linguistics. Pleonastic units formed when medical terms occur in speech are analyzed. Also, the features of the formation of medical terms are classified.

Key words: linguistics, terminology, medicine, medical terms, medical abbreviation, pleonastic combination, pleonasm.

Terminologiya (termin va logiya) — 1) 1) leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog‘ining, san‘at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi sohasi.

71.	Мардонова Ф. Нравственное воспитание учащихся на уроках русского языка	232
72.	Samandarova G. Hasharot lug‘aviy-ma‘noviy guruhi asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalarida antonimlik	236
73.	Bozorova G. Tibbiy atamashunoslikda abbreviaturalar	240
74.	Dusanova T. “Mahbub ul-qulub” asaridagi tanbeh va hikoyatlarda nazmiy matnlar poetikasi	243
BESHINCHI SHO‘BA O‘ZBEK-OZARBAYJON ADABIY ALOQALARI: TILSHUNOSLIK, ADABIYOTSHUNOSLIK, BADIYYAT		
75.	Şehrabani Allahverdiyeva Anadolu‘da müslümanlığın ve türklüğün piri	247
76.	Əlizadə Əsgərli Azərbaycan-özbəkistan ədəbi əlaqələri və Məqsud Şeyxzadə	252
77.	Xolmurodov A. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Maqsud Shayxzoda ijodining o‘rni	261
78.	Elmira Məmmədova-Kekeç Maqsud Şeyxzadə və Bəxtiyar Vahabzadənin şeir və dramlarının mətnlərarası oxunması	267
79.	Əzizağa Ələkbərli, Gülşən Kəngərinskaya “Özbək ədəbiyyatının Şekspiri...”	268
80.	Yashar Kosim Zamondoshlar va uslubdoshlar (XX asrning ikki buyuk shoirining poeziyasi hokida oylar) Zamandaşlar və üslubdaşlar (XX əsrin iki böyük şairinin poeziyası haqqında düşüncələr)	275
81.	Alish Aghamirzayev Thoughts about russian foreign literature (different opinions about the specifics of Russian foreign literature)	282
82.	Əflatun Şükür oğlu Baxşəliyev Rəzzaq Əbdürrəşidin yaradıcılığında səməd vurğun mövzusu	285
83.	Норова Г. Мақсуд Шайхзода <i>адабий</i> меросининг тил хусусиятлари	291
84.	Yuldasheva D. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasida qush nomlari uslubiy vosita sifatida	296
85.	Ibatova A. Maksud Shaykhzoda's role in linguistics and literature	299